Philosophical Aspects and Analysis of the Regularities of the Formation of Geo-Economic Thinking	822
Ubaydullayev Islomjon Abdullayevich	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarini sun'iy intellekt texnologiyalaridan samarali foydalanishga tayyorlashning pedagogik asoslari	826
Xudayqulova Fazilat Bo'riyevna	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Boshlang'ich ta'lim va tarbiya jarayonida o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda ommaviy axborot vositalarining (Media/Mass Communication) roli.....	831
Bo'ronova Dilrabo Ne'matullayevna	
Inkluziv maktab sharoitida kichik maktab yoshidagi bolalarda ijtimoiy-perseptiv tajribani shakllantirish	835
Karimova Zulfiya Abduraxmanovna	
TEACCH konsepsiyasi – autizm va kommunikativ buzilishlari bo'lgan bolalarni davolash va o'qitish dasturi.....	839
Murodova Sarvigul Raxim qizi	
Модернизация кадровой политики дошкольных учреждений через инновационные мониторинговые механизмы	843
Ким Нигора Каримовна	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini ergonomik yondashuv asosida rivojlantirish	847
Usmonova Xafiza	
Pedagogik improvizatsiya asosida talabalar o'quv faoliyatini rivojlantirishning pedagogik strategiyalari	852
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna	
Talabalar orasida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazish	857
Nurmatova Madina Odiljon qizi, Qo'shoqova Farangiz Azizbek qizi	
O'quvchi-yoshlarni oilaga nisbatan ma'naviy-axloqiy va qadriyatli munosabatlarga tayyorlash – ijtimoiy-pedagogik zaruriyat sifatida	861
Xaydarov Oxunjon Murodjonovich	
Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning ilmiy-metodik ahamiyati	866
B. Normamatova	
Talabalarda pedagogik e'tiqodni shakllantirishning variativ modeli va uning asosiy komponentlari	869
Bahranova Hulkar Bahran qizi	
Konvensial yondashuv asosida talabalarni mustaqil ta'lim olish samaradorligining didaktik imkoniyatlarini rivojlantirish.....	872
Berdiyev Bahodir Ravshanovich	
Kontekstli yondashuvga asoslangan o'quv-ijodiy faoliyatning turlari	875
Botirova Zilola Nodirovna	
Raqamli texnologiyalar vositasida bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik muloqot madaniyatini rivojlantirish.....	878
Ergasheva Sunbula Baxtiyor qizi	
Boshlang'ich sinflarida ta'lim o'quvchilarga sonlar haqida ma'lumot berish	882
Hakimova Zulfizar Umrzoq qizi	
Biologiya ta'limida elektron ta'lim (E-Learning) va aralash ta'lim (Blended Learning) texnologiyalarining samaradorligini tahlil qilish.....	886
Kozimov Akbarjon A'zamjon o'g'li	
Alisher Navoiy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid fikrlari tahlili.....	891
M. Ibragimova	
Integratsiyalashgan dars ta'limiy faoliyat samaradaorligini ta'minlovchi muhim omil sifatida	894
Mahmatqulova Xosiyat Bobomurod qizi	
Tarbiyalanuvchilarni xalq og'zaki ijodi namunalari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning mazmunini ochib berish.....	897
Murodillayeva Durdona Dilmurodovna	
Sun'iy intellekt davrida bolalar adabiyoti: raqamli qahramonlar, interaktiv ertaklar va bolaning ijodiy tafakkuri rivoji	900
Normurodova Nigora Abdusattorovna, Sharipova Iroda Rashid qizi	
Qadimgi va o'rta asr mutafakkirlarining matematika fanining shakllanishi va rivojlanishidagi o'rni	903
Quvvatova Ozoda Gulbek qizi	
Shaxs xolistik rivojlanishi – psixologik-pedagogik muammo sifatida	906
Rashidova Xurriyat Sulaymonovna	
Bolalarda elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari.....	908
Ravshanova Kamola Toxirovna	
Matematikaga rivojiga ulkan hissa qo'shgan olimlar	911
To'rayeva Kamola Vosidjon qizi	



Umumiy o'rta ta'limda mexanika masalalarini yechish metodikasi va o'qitish jarayonining didaktik asoslari	914
<i>Toxirova Maxfuzaxon Otaqo'ziyevna</i>	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyachi-pedagogalarining kasbiy-axloqiy kompetentligini rivojlantirish	916
<i>Xabibullayeva Sayyoraxon Maxamadali qizi</i>	
TRIZ va kreativ pedagogika: boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy muammolarni hal qilish qobiliyatini rivojlantirish	919
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxammatovna, Fayzullayeva Nazokat Uchqunovna</i>	
Maktab ta'limi uchun mobil ilova yaratishda MIT APP inventor platformasidan foydalanish	922
<i>Tangirov Xurram Ergashevich, Xo'jamqulova Dilso'z Bahodir qizi</i>	
Pedagogical Methods for Improving Students' Creative Thinking as they Learn	927
<i>Akhmedov Alisher Astanovich, Yarmuhamedov Nabijon</i>	
Implementation Outcomes and Development Prospects of the Social And Legal Club in the Secondary Vocational Education System as a Tool for Delivering Social Services	932
<i>Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna</i>	
Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students	935
<i>Chakkanov Faxriddin Xusanovich</i>	
Current Research and Suggestions on The Impact of Physical Activity on Adolescents' Mental Health	938
<i>Irgashev Shokhrukh Khasanovich</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi shaxsiga qo'yiladigan zamonaviy pedagogik talablar	941
<i>Gaziyeva Nigora shamsiddinovna, Abdiraxmonova Nilufar Muxiddinovna</i>	
Eshituv va fonematik idrokni rivojlantirishda neyropsixologik o'yin usullari	945
<i>Lutfullayeva Sadoqat Muzaffar qizi, Axmedova Zuxra Mirzabekovna</i>	
Metodlarning turlari va nazariy asoslari	948
<i>Murodova Durdona Rayimjon qizi, Ashurova Hulkaroy Ma'rufjon qizi</i>	
Bo'lajak biologiya o'qituvchilarining tizimli tafakkurini rivojlantirishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini aniqlash: pedagogik tajriba-sinov natijalari va matematik-statistik tahlil	952
<i>Mustafaqulova Dildora Ismatullayevna</i>	
Raqamli texnologiya ta'limga imkoniyatmi yoki xavf?	960
<i>Otanazarova Mehriniso Abdusharif qizi</i>	
Zamonaviy sharoitlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni olib borish uslubiyoti va unga qo'yilayotgan talablar	963
<i>Ortiqova Nargiza Akramovna, Suvonqulova Muxabbat Otamurot qizi</i>	
Interactive Grammar Learning Methods and their Significance for Non-Philological Education Students .	969
<i>Almatova Umida Islomovna</i>	
Berilganlar bazasi konsepsiyalarining evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish bosqichlari.....	975
<i>Nosirova Shohista Elmurodovna</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda tarbiyachining pedagogik ahamiyati.....	980
<i>Kadirova Shaxnoza Xudoyberdiyevna</i>	
Autentik matnlar orqali o'quvchilarda o'qishga motivatsiya shakllantirish	987
<i>Usmonova Gulhumor Qo'ldashboy qizi</i>	
Zamonaviy ta'lim tizimida "Aralash ta'lim (Blended Learning)" texnologiyasining joriy etilishi.....	991
<i>Sh. D. Ablakulov</i>	
Ko'paytirish amalini o'rgatishga zamonaviy yondashuv (suv vositasida)	995
<i>Ismoilov Bobur Toxirovich</i>	
WEB dasturlash fanining ahamiyati va rivojlanish tendensiyalari.....	1000
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Abdullayev Javohirbek Zokirjon o'g'li</i>	
Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarida metakognitiv kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-metodik xususiyatlari	1005
<i>Sattorova Go'zalxon Mamadaminovna</i>	
Reflective Technologies of Development of Sanogen Thinking in Students.....	1010
<i>Ismailov Murodulla Kahramonovich</i>	
Tinglab tushunish ko'nikmasini rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik asoslari.....	1014
<i>Avazova Farangiz Ixtiyor qizi</i>	

Surxon adabiy maktabi: Usmon Azim va Shafolat Rahmatulla Termiziy ijodi.....	1022
<i>Xolboyeva Dilafuz Xayrulla qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy mazmundagi masalalar asosida ijodiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish	1026
<i>Ahmadjonova Intizor Iqboljon qizi, Dehqonova Mahliyo Shuhrat qizi</i>	
Tarbiyalanuvchilarda miqdor va son tushunchalariga doir ta'limiy o'yin faoliyatlari jarayonida ixtiyoriy diqqatini shakllantirish.....	1030
<i>Quysinova Shahlo Nasim qizi</i>	
Alaliyali bolalar bilan logopedik ishning tizimli yondashuvi	1035
<i>Irkinova Irodaxon Temirovna</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida o'quvchilarni eshitish va talaffuzga paralel ravishda rivojlantirish: integratsiyalashgan yondashuv	1040
<i>Raximova Mahliyo Xasanboy qizi</i>	
Gender xususiyatlarning ijtimoiy shartlangan ko'rinishlari	1043
<i>Yulduzxon Mirzaaxmedova</i>	
Oliy ta'limda muhandislik fizikasi fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlarini takomillashtirish	1047
<i>Butayeva Nargiza Buriboyovna</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini integrativ yondashuv asosida shakllantirish modeli.....	1051
<i>Askarova Zilolaxon Nurmuhamadovna</i>	
Sun'iy intellekt asosida ta'limni individuallashtirishning pedagogik asoslari	1055
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Toxirova Muattarxon Isroil qizi</i>	
Matematik fizika tenglamalari fanini o'qitishda yuqori tartibli differensial tenglamalar bo'limining o'rni va ahamiyati	1060
<i>Murzambetova Mexriban Begdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari tarbiyasida ota-onalar bilan hamkorlikni tashkil etish metodikasi	1064
<i>Fayziyeva Madinabonu Sohibjon qizi</i>	
O'tkir Hoshimovning realistik xarakter yaratish mahorati.....	1070
<i>Nortojiyev Muxammad</i>	
Bolalar adabiyoti asarlarini tahlil qilishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlari	1073
<i>Xujamqulova Iroda Faxriddinovna</i>	
O'quv jarayoni ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning bolalarda bilish faolligini rivojlantirishdagi ahamiyati	1078
<i>Achilov Obid Muzrobovich</i>	
Maktab o'quvchilarida mustaqil ta'limni tashkil etish, o'tkazish va baholash metodikasi.....	1083
<i>Musayeva Gulnoza Yo'ldosh qizi</i>	
Bo'lg'usi pedagoglarda estetik kompetensiyani rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	1087
<i>Bozorova O'g'iloy Komilovna</i>	
"Taskari teorema" innovatsion pedagogik texnologiyasi	1093
<i>Yandasheva Sevara Ne'matjonovna</i>	
Technologies for Forming Students' Communicative Competence Based on Interdisciplinary Integration.....	1096
<i>Umida Eshmirzayevna Mamatkulova</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda elementar matematikaning o'rni	1101
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li</i>	
Zamonaviy muhandisni tayyorlash texnologiyasi – kasbiy kompetentlikni shakllantirish imperativi sifatida	1105
<i>Axmedova Aziza Shokir qizi</i>	
Yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakati biomexanik ko'rsatkichlarining texnik samaradorlikka ta'siri	1110
<i>Djabbarov Axror Islomovich</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining sun'iy intellektdan foydalanish kompetensiyasini shakllantirish	1114
<i>Artikova Nargiz Shuxratovna</i>	
O'quvchilarni tayanch hayotiy kompetensiyalar orqali iqtisodiy bilimlarini shakllantirish	1118
<i>Adizova Nigora Baxtiyorovna, Sayfullayeva Dilnoza Amrullayevna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda interfaol ta'lim metodlarining pedagogik samaradorligi.....	1123
<i>Ortiqova Zulfiya Nurmaxamatovna, Oripova Shaxzodaxon Otamurod qizi</i>	



Integrativ yondashuv asosida bo'lajak pedagoglarni ma'naviy tarbiya faoliyatiga tayyorlashning pedagogik mexanizmlari.....	1127
Rahmatjonzoda Ahrorjon Ahmad o'g'li	
Ta'lim transformatsiyasi sharoitida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	1130
Beknazarova Muxlisa O'tkir qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda oila va maktab hamkorligi	1135
Mamadaliyeva Gavxarxon Asiljonovna	
Pedagogik amaliyotda pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy–amaliy asoslari	1139
Yunusova Feruza Maxamadolim qizi	
O'quvchilarda milliy xarakter xususiyatlarini rivojlantirishning pedagogik aspektlari	1143
Hasanova Gulmira Hoshimjanovna	
Maktab yoshidagi o'quvchilarga she'riy asarlarni o'qitishga doir ayrim metodlar (O. Matjonning "Orolga yordam" she'ri asosida).....	1147
Alxiyeva Sitora Raximqul qizi	
Sport travmalaridan keyingi reabilitatsiyada jismoniy tarbiya vositalaridan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	1150
Begimqulov Oltiboy Jo'rayevich	
Demografik vaziyatning mohiyati va tarkibi	1155
Bomurodov Sanjar Bekmurodovich	
Problems of Developing the Terminology System of the Uzbek Language.....	1159
Dilnoza Yuldasheva Bekmurodovna	
Tarbiya darolarida guruh va jamoaviy o'yinlar orqali muloqot madaniyatini shakllantirish.....	1163
Menlibayeva Azima Oralbayevna	
Raqamlashtirilgan ta'limda talabalarni tanqidiy fikrlash asosida kommunikativ kompetentligini rivojlantirish texnologiyalari.....	1166
Nuriddinova Xurshida Narpulatovna	
Raqamli ta'lim vositalarining boshlang'ich ta'limdagi afzalliklari	1169
Sattorova Mohira	
The Importance of Teaching Physics Through Modern Educational Trends	1172
Sharofutdinov Ikboljon Usmonjon ugli	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy rivojlanishida gender rollar nazariyasining amaliy ahamiyati	1176
Tolipova Noilaxon Nodir qizi	
Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish	1183
Umida Bovanova Abduvahobovna, Bo'riboyeva Navbahor Faxriddinov	
Zamonaviy ilg'or xorijiy tajribalar asosida qon aylanish tizimi mavzusini o'qitishning innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari	1186
Xaqberdiyeva Sh. T.	
Ingliz tili darolarida kreativlikni oshirishda kuzatiladigan muammolar va ularni yechishga doir pedagogik yondashuvlar.....	1190
Yusupov Lutfullo Sayitturayevich	
Informatika fanini o'qitishda qo'llaniladigan innovatsion ta'lim texnologiyalari ("Axborotlarni kodlash" mavzusi misolida).....	1194
Temirova Gulbahor G'ulomovna, Yusupova Nodira Nurdinovna	
Boshlang'ich ta'limda o'quv veb-saytlari orqali til kompetentligini rivojlantirish	1201
Zokirova Sohiba Muxtoralievna, Muxammadjonova Diyorabonu Muzaffarjon qizi	
Innovatsion ta'lim sharoitida "maktabgacha ta'limda menejment" fanini o'qitishning didaktik imkoniyatlari	1204
Astanakulova Manzura Buribayevna	

YENGIL ATLETIKA SPORTCHILARIDA YADRO ITQITISH HARAKATI BIOMEXANIK KO'RSATKICHLARINING TEXNIK SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Djabbarov Axror Islomovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Jismoniy madaniyat va sport faoliyati” kafedrasida katta-o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yengil atletika sportchilarida yadro itqitish harakatining biomexanik ko'rsatkichlari hamda ularning texnik samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqot zamonaviy biomexanika fanining yutuqlariga tayangan holda yadro itqitish texnikasining kinematik va dinamik parametrlarini o'rganishga qaratilgan. Maqolada sportchilarning harakat tuzilishi, tezlik-kuch ko'rsatkichlari, optimal itarish burchagi va energiya sarfi masalalari ilmiy adabiyotlar tahlili asosida baholangan. Olingan natijalar biomexanik parametrlarni maqsadli boshqarish va takomillashtirish sport natijalarining sezilarli darajada oshishiga xizmat qilishini ko'rsatadi. Tadqiqotda O'zbekiston va xorijiy ilmiy manbalar asosida nazariy va amaliy tahlillar amalga oshirilgan.

Kalit so'zlar: biomexanika, yadro itqitish, kinematika, dinamika, texnik samaradorlik, sport natijalari, yengil atletika, harakat tahlili, kuch ko'rsatkichlari.

Abstract: This article analyzes the biomechanical indicators of shot put movement in track and field athletes and their impact on technical efficiency. The study focuses on examining the kinematic and dynamic parameters of shot put technique based on the achievements of modern biomechanics. Particular attention is paid to movement structure, speed-strength indicators, optimal release angle, and energy expenditure efficiency through a comprehensive review of scientific literature. The findings demonstrate that targeted control and improvement of biomechanical parameters significantly contribute to enhancing athletic performance. The research is grounded in theoretical and practical analyses of both national and international scientific sources.

Key words: biomechanics, shot put, kinematics, dynamics, technical efficiency, athletic performance, track and field athletics, movement analysis, strength indicators.

Аннотация: В статье проанализированы биомеханические показатели движения толкания ядра у легкоатлетов и их влияние на техническую эффективность. Исследование направлено на изучение кинематических и динамических параметров техники толкания ядра с опорой на достижения современной биомеханической науки. В работе на основе анализа научной литературы оценены структура двигательных действий спортсменов, скоростно-силовые показатели, оптимальный угол выталкивания и особенности энергозатрат. Полученные результаты свидетельствуют о том, что целенаправленное управление и совершенствование биомеханических параметров способствует существенному повышению спортивных результатов. Исследование основано на теоретико-практическом анализе отечественных и зарубежных научных источников.

Ключевые слова: биомеханика, толкание ядра, кинематика, динамика, техническая эффективность, спортивные результаты, легкая атлетика, анализ движений, силовые показатели.

KIRISH

Zamonaviy sport fanida biomexanik tahlil sport turlari, xususan, yengil atletika yo'nalishida yuqori natijalarni qo'lga kiritishning muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Yadro itqitish klassik kuch-tezlik sportlari qatoriga kiradi va sportchining jismoniy imkoniyatlari bilan birga texnik mahoratining mukammalligini talab qiladi. Jahon sport arenasida yadro itqitish bo'yicha rekordlar doimiy ravishda yangilanib turibdi va bu jarayonda biomexanik tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda^[1]. O'zbekiston sport tizimida ham yengil atletika rivojlanishi va sportchilarning xalqaro maydonda munosib o'rin egallashi uchun ilmiy asoslangan yondashuvlar zaruriyati tobora ortib bormoqda.



Yadro itqitish texnikasi murakkab koordinatsion harakat bo'lib, u bir necha fazalardan iborat: boshlang'ich holat, aylanma harakat yoki sirg'alish, itarish va muvozanatni saqlash. Har bir faza o'ziga xos biomexanik xususiyatlarga ega va umumiy natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi [2]. Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, sportchining texnik tayyorgarligi uning jismoniy salohiyatini to'liq amalga oshirishga imkon beradi yoki aksincha, texnik xatolar yuqori fizik ko'rsatkichlar mavjudligida ham natijalarni pasaytirishga olib keladi [3]. Shu sababli, biomexanik parametrlarning to'g'ri tahlili va bu asosda treninglar tizimini qurish zamonaviy sport pedagogikasi va sport tayyorgarligining asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, biomexanik ko'rsatkichlarning texnik samaradorlikka ta'sirini chuqur o'rganish orqali murabbiylar va sportchilar uchun aniq metodologik tavsiyalar ishlab chiqish mumkin. Bugungi kunda sport biomexanikasi sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, harakat kinematikasi, dinamikasi va energetikasining optimal parametrlarini aniqlash sport natijalarini 5-15 foizgacha oshirishi mumkin [4]. Ushbu maqolaning maqsadi yadro itqitish harakatining asosiy biomexanik ko'rsatkichlarini adabiyotlar tahlili orqali baholash va texnik samaradorlikni oshirish yo'llarini aniqlashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Biomexanik tahlilning nazariy asoslari bo'yicha V.M. Zatsiorskiy, D.D. Donskoy va boshqa rus olimlarining klassik ishlari muhim ahamiyatga ega [5]. Ularning tadqiqotlarida sport harakatlarining kinematik va dinamik xususiyatlari, harakat fazalari hamda ularning o'zaro bog'liqligi batafsil yoritilgan. Xususan, Zatsiorskiy yadro itqitishda optimal itarish burchagi 38–42 daraja oralig'ida ekanligini hamda ushbu ko'rsatkich sportchining tana balandligi va qo'l uzunligiga bog'liqligini ilmiy asoslab bergan [1]. Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlar optimal itarish burchagi sportchining individual xususiyatlari va texnik tayyorgarlik darajasiga qarab o'zgarishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Yadro itqitish texnikasining kinematik tahlili bo'yicha xorijiy tadqiqotchilar, jumladan, Bartonietz va hamkorlarining ishlari alohida e'tiborga loyiqdir [6]. Ular yuqori malakali sportchilarning harakatlarini videoanaliz va tezkor kinematografiya usullari yordamida o'rganib, itarish fazasidagi tezlik o'zgarishlari va tezlanish parametrlarining sport natijasiga bevosita ta'sirini aniqlaganlar. Tadqiqot natijalari yadro itqitish jarayonida maksimal tezlikka erishish vaqti 0,15–0,25 soniya oralig'ida bo'lishi zarurligini ko'rsatadi, bu esa sportchining mushak kuchini samarali namoyon etishiga imkon beradi [6]. Shuningdek, sportchining tana markazining optimal harakati hamda oyoqlar va ko'krak qismining o'zaro muvofiqlashtirilgan ishlashi muhim biomexanik omillardan biri hisoblanadi.

Dinamik parametrlar tahlili bo'yicha Linthorne va hammualliflar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar alohida ahamiyatga ega [7]. Ular yadro itqitishda qo'llaniladigan kuch va quvvat ko'rsatkichlarini o'lchash usullarini takomillashtirib, sportchilarning turli texnik variantlarini biomexanik nuqtai nazardan baholaganlar. Dinamometriya va kuch platformalari yordamida olingan ma'lumotlarga ko'ra, itarish fazasida maksimal kuch 800–1200 N gacha yetishi mumkin bo'lib, bu ko'rsatkich sportchining tana massasi, mushak quvvati va texnik tayyorgarlik darajasiga bog'liq [7]. Energiya sarfi va uning samaradorligi ham muhim ko'rsatkich bo'lib, sportchining metabolik resurslarni to'g'ri taqsimlashi yakuniy natijaga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'zbek olimlari M.S. Saidov va R.A. Axmedovlarning yengil atletika sportchilarini tayyorlash bo'yicha olib borgan tadqiqotlari milliy sport maktabi xususiyatlarini hisobga olgan holda biomexanik yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlarini asoslab beradi [8]. Ularning ta'kidlashicha, O'zbekiston sportchilari uchun individual antropometrik xususiyatlarni inobatga olgan holda texnik variantlarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, iqlim sharoitlari va mashg'ulotlar rejimining biomexanik samaradorlikka ta'siri ham o'rganilishi zarur bo'lgan omillar sirasiga kiradi.

Harakat texnikasining fazaviy tuzilishiga oid adabiyotlar tahlili yadro itqitish jarayoni to'rtta asosiy fazaga bo'linishini ko'rsatadi: tayyorgarlik fazasi, sirg'alish yoki aylanma harakat fazasi, itarish fazasi va yakuniy muvozanat fazasi [2]. Har bir fazaning biomexanik samaradorligi keyingi fazaning muvaffaqiyatini belgilaydi. Tayyorgarlik fazasida sportchi optimal boshlang'ich holatni egallaydi, sirg'alish fazasida kinetik energiya to'planadi, itarish fazasida ushbu energiya yadro tezligiga aylantiriladi va yakuniy fazada sportchining aylana ichida qolishi ta'minlanadi. Mazkur fazalarning biomexanik parametrlariga rioya qilinmasligi umumiy natijalarning pasayishiga olib keladi [3].

Tezlik-kuch ko'rsatkichlarining o'zaro bog'liqligiga oid tadqiqotlar yadro itqitishda maksimal natijaga erishishda sportchining eksploziv kuchi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi [9]. Eksploziv kuch qisqa vaqt ichida maksimal kuchni ishlab chiqarish qobiliyatini ifodalaydi va aynan ushbu ko'rsatkich yadro itqitishda muhim rol o'ynaydi. Biomexanik nuqtai nazardan, eksploziv kuch mushak tolalarining tez qisqarish xususiyatlari hamda nerv-mushak koordinatsiyasi bilan belgilanadi. Shu bois, mashg'ulotlar jarayonida eksploziv kuchni rivojlantirish bilan bir qatorda texnik mahoratni takomillashtirishga ham yetarli e'tibor qaratilishi zarur.

Sportchining antropometrik xususiyatlarining biomexanik samaradorlikka ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tana balandligi, a'zolar uzunligi va tana massasi yadro itqitish texnikasi-

ning optimal variantini tanlashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi [10]. Uzun bo'yli sportchilar, odatda, yuqoriroq itarish nuqtasiga ega bo'lib, bu optimal itarish burchagining o'zgarishiga olib keladi. Shu bilan birga, massiv sportchilar ko'proq kuch ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo'lsalar-da, ularning tezlik ko'rsatkichlari nisbatan past bo'lishi mumkin. Shuning uchun, har bir sportchining individual xususiyatlarini hisobga olgan holda texnik yondashuvni tanlash ilmiy va amaliy jihatdan muhim hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish va nazariy umumlashtirish metodlariga asoslangan. Tahlil jarayonida O'zbekiston, Rossiya va xorijiy mualliflarning biomexanika, yengil atletika hamda sport pedagogikasi yo'nalishidagi ilmiy ishlari o'rganilgan. Adabiyotlarni tanlash jarayonida sport biomexanikasi sohasida so'nggi o'n yillikda amalga oshirilgan muhim tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratildi. Nazariy materiallar taqqoslash, sintez va tahlil metodlari yordamida tizimlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Adabiyotlar tahlili natijalarini umumlashtirish asosida yadro itqitish harakatining biomexanik samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni quyidagicha tizimlashtirish mumkin.

Birinchidan, optimal itarish burchagi va tezligi sportchining individual xususiyatlariga muvofiq tanlanishi zarur. Nazariy hisob-kitoblar 42 daraja burchak ideal deb hisoblanishini ko'rsatadi, biroq amaliyotda sportchining tana balandligi, qo'l uzunligi va itarish nuqtasining balandligi inobatga olinganda ushbu ko'rsatkich 38–44 daraja oralig'ida o'zgarishi mumkin.

Ikkinchidan, itarish fazasida maksimal tezlikka erishish vaqti muhim biomexanik parametr bo'lib, u 0,2 soniyadan oshmasligi lozim. Mazkur vaqt oralig'ida sportchi o'zida to'plangan kinetik energiyani to'liq darajada yadro tezligiga o'tkazishi talab etiladi.

Uchinchidan, tana segmentlarining ketma-ket va o'zaro muvofiqlashtirilgan harakati yadroning maksimal tezlikka erishishida asosiy mexanizm hisoblanadi. Biomexanik tahlillar shuni ko'rsatadiki, harakat oyoqlardan boshlanib, tos sohasi, ko'krak qismi va qo'l orqali ketma-ket uzatilishi zarur. Ushbu ketma-ketlikning buzilishi energiya yo'qotilishiga hamda sport natijalarining pasayishiga olib keladi.

To'rtinchidan, sportchining tana og'irlik markazining optimal traektoriyasi muhim ahamiyat kasb etadi. Sirg'alish yoki aylanma harakat fazasida tana markazining past va tezkor harakati keyingi itarish fazasida yuqori tezlikni ta'minlaydi.

Beshinchidan, yakuniy muvozanat fazasida sportchining o'z holatini nazorat qila olish qobiliyati texnik samaradorlikning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarni taqqoslash natijasida shuni ta'kidlash mumkinki, zamonaviy sport biomexanikasi videotahlil, dinamometriya va elektromyografiya kabi ilg'or usullardan foydalanish orqali harakatning aniq parametrlarini aniqlash imkoniyatiga ega. Ushbu usullar yordamida murabbiylar har bir sportchining texnik xatolarini aniqlab, ularni bartaraf etishga qaratilgan individual mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqishlari mumkin. Shaxsiy tahlillarga tayangan holda ta'kidlash joizki, O'zbekiston sharoitida bunday zamonaviy texnologiyalarni joriy etish yengil atletika sportchilarining natijalarini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Biroq buning uchun sport-fan laboratoriyalarini zamonaviy texnik vositalar bilan jihozlash va malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash zarur.

Biomexanik parametrlarning texnik samaradorlikka ta'sirini baholashda kompleks yondashuv zaruriyati yaqqol namoyon bo'ladi. Alohida bitta parametрни takomillashtirish yetarli emas, balki barcha biomexanik ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligi inobatga olinishi lozim. Masalan, sportchining eksploziv kuchini oshirish bilan bir qatorda uning texnik mahoratini ham izchil ravishda takomillashtirishga e'tibor qaratish zarur. Shuningdek, sportchining psixologik tayyorgarligi hamda raqobat sharoitida o'z texnikasini barqaror namoyon eta olish qobiliyati sport natijalariga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillar sirasiga kiradi. Ilmiy adabiyotlarda keltirilgan tajribalar biomexanik jihatdan puxta asoslangan mashg'ulot dasturlari sportchilarning natijalarini 6 oylik davr mobaynida 8–12 foizgacha oshirish imkonini berishini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yadro itqitish harakatining biomexanik ko'rsatkichlarini tahlil qilish hamda ularning texnik samaradorlikka ta'sirini baholash zamonaviy yengil atletika sportchilarini tayyorlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, optimal itarish burchagi, maksimal tezlikka erishish vaqti,



tana segmentlarining o'zaro muvofiqlashtirilgan harakati, tana og'irlik markazining to'g'ri traektoriyasi hamda yakuniy muvozanatni saqlash qobiliyati texnik samaradorlikni belgilovchi asosiy omillar sanaladi. Har bir sportchining individual antropometrik va jismoniy xususiyatlarini inobatga olgan holda biomexanik parametrlarni optimallashtirish zarur.

Zamonaviy sport biomexanikasi usullari, jumladan, videoanaliz va dinamometriya, harakat jarayonlari bo'yicha aniq va obyektiv ma'lumotlar olish imkonini beradi. O'zbekiston sport tizimida bunday ilmiy yondashuvlarni keng joriy etish uchun zamonaviy sport-fan laboratoriyalarini tashkil etish va malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shuningdek, kelgusida olib boriladigan tadqiqotlarda amaliy tajribalarni kengaytirish hamda milliy sportchilar uchun biomexanik parametrlarning me'yoriy qiymatlarini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зациорский В.М., Аруин А.С., Селуянов В.Н. Биомеханика двигательного аппарата человека. – Москва: Физкультура и спорт, 2017. – 320 с.
2. Донской Д.Д., Зациорский В.М. Биомеханика: учебник для институтов физической культуры. – Москва: ФиС, 2019. – 264 с.
3. Саидов М.С., Ахмедов Р.А. Ёнгил атлетика спортчиларини тайёрлашнинг замонавий усуллари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 185 б.
4. Popov G.I., Ratov I.P. Biomechanics of motor activity: textbook for students. – Moscow: Academy, 2018. – 312 p.
5. Бернштейн Н.А. О ловкости и её развитии. – Москва: Физкультура и спорт, 2016. – 288 с.
6. Bartonietz K., Borgström A. The throwing events at the World Championships in Athletics 1995: technique of the world's best athletes // New Studies in Athletics. – 1995. – Vol. 10. – P. 43–63.
7. Linthorne N.P. Biomechanics of the javelin throw // Sports Biomechanics. – 2001. – Vol. 1(1). – P. 79–92.
8. Ахмедов Р.А. Ёнгил атлетикада техник тайёргарликнинг биомеханик асослари // Спорт-илм ахборотномаси. – 2021. – № 3. – Б. 45–52.
9. Knudson D. Fundamentals of Biomechanics. – New York: Springer, 2020. – 305 p.
10. McGinnis P.M. Biomechanics of Sport and Exercise. – Champaign: Human Kinetics, 2019. – 368 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.